

IMOM MOTURIDIY SHAXSIYATIGA CHIZGILAR

Jo'rayeva Gulziyo

Andijon davlat universiteti magistri

Adabiyot inson ma'naviyatini yuksaltirish omili ekanligi hozirgi kunda o'z isbotini topgan. Adabiyot inson kechinmalari va hayotini tasvirlash orqali ma'lum bir davr ijtimoiy-siyosiy voqeligidagi dolzarb muammolarni yoritib beradi. Shu ma'noda istiqlol davri adabiyotida ijod qilayotgan Luqmon Bo'rixon, Sh.Holmirzaev, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Erkin A'zam, Omon Muxtor, Asad Dilmurod, Ulug'bek Hamdam, Hurshid Do'stmuhammad, Shoyim Bo'taev, Xayriddin Sultonov, kabi ijodkorlarimiz ijodida ham zamondoshlarimizning orzu-o'ylari, kechinmalari davr muammolari bilan uzviylikda tasvirlanadi. Hozirgi adabiy jarayonda o'zining nasriy asarlari bilan tanilgan yozuvchi Luqmon Bo'rixon ijodini har tomonlama izchil tadqiq etish bugungi kundagi adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardandir. Luqmon Bo'rixon asarlarida yangilangan tafakkur, yangicha dunyoqarash va milliy ruh aks etadi. Kinoya orqali munosabat bildirish, milliylikka alohida e'tibor Luqmon Bo'rixon ijodiga xos.

L.Bo'rixon tarixiy mavzuda ham qalam tebratib, bugungi kun bilan hamnafas bo'lgan "Imom Moturidiy" romanini yaratdi. Moturidiyning hayoti, uning shaxsiyati, umr yo'li, bizga qoldirgan ma'naviy merosi o'qib-o'rganishga, o'rnak olishga undaydi.

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bu romanni aynan buyuk allomalarimiz haqidagi asarlarga, kitobxonlikka talab kuchaygan davrda yaratilgan asar, deb hisoblasa, O'zbekiston qahramoni I.G'ofurov bu roman haqida shunday deydi: "Yozuvchi tarix sahifalarida misqollab yig'ib, o'rganib va tahlil va talqin qilib buyuk ilohiyotshunos olimning badiiy qiyofasini hayotiy, insoniy tarzda yoritishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu roman tariximizning qorong'u sahifalarini yoritib, o'y-hayollarimizga yaxshi bir ozuqa beradi. Ezgulik, abadiyat, ilohiyot bobimizdagi fikrlarimizni charxlaydi"[1.19].

Badiiy obraz borliqdagi inson, narsa, hodisaning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideali asosida ijodiy qayta ishlagan aksi demakdir. Badiiy obraz yordamida ijodkor o'zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi, Yozuvchi o'z asariga hayotiy hodisa va kishilarni material qilib oladi. Shu jumladan, agar asar tarixiy material asosida yozilgan bo'lsa, ma'lum tarixiy shaxslar ham badiiy asarning qahramoni etib tasvirlanishi mumkin.

Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" tarixiy romanidagi Abu Mansur Moturidiy, Mastonbibi, Xolid Xalaj, Qutlug' Muhammad Nuriy, Abu Abdulloh Jayhoni kabi bir qator shaxslar haqiqatan tarixda yashab o'tgan shaxslar bo'lib, ayni

paytda ular tarixiy romanning badiiy obrazlaridir. “Yozuvchi badiiy obrazlar vositasida o’sha davrdagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy muammolarni badiiy tadqiq etadi, obrazlar tizimi vositasida bu boradagi fikr-qarashlarini shakllantiradi va o’zi anglagan haqiqatni tugal bir qarash, tizim holidagi badiiy xulosa tarzida ifoda etadi” [4.44]. Luqmon Bo’rixonning “Imom Moturidiy” asarida Moturidiy obrazi alohida yoritiladi.

Yozuvchi Imom Moturidiy etik estetik ideali orqali jamiyatni mukammal bo’lishga insonni o’z-o’zini isloh qilishga undaydi.

Aslida, Abu Nasr al-Moturidiy IX-X asrlarda Movarounnahrda somoniylar hukmronligi davrida yashab, ilmiy ijod bilan shug’ullangan. Moturidiy islom olamida “Imom al-huda” (hidoyatga boshlovchi imom), “Rais ahli sunna val jamoa” (ahli sunna val jamoa imomi) nomlari bilan tanilgan buyuk shaxs bo’lib, uning tug’ilgan yili noma’lum, vafot etgan sanasi esa milodiy 944 yil deb ko’rsatilgan. U Samarqandda tug’ilgan. Moturidiydan bizgacha “Kitobut tavhid”, “Ta’vilotul Qur’on”, “Pandnoma” asarlari yetib kelgan. Imom Moturidiy yashagan davr turli g’oyaviy parokandalik va ixtiloflar kuchaygan payt edi. Bu davrda paydo bo’lgan qadariya, jabariya, xorijiya kabi oqimlarga qarshi tura olgan kattahadisshunos va fiqhshunos olim Imom Moturidiy bo’ldi. Buyuk alloma ahlisunna val jamoa aqidasi saqlab qolgan. Asarda ilohiyotshunos alloma va uning shaxsiy hayoti aks ettirilgan, uning aqida va kalom ilmi rivojiga qo’shgan bebaho hissasiga urg’u berilib, Moturidiy timsoli orqali yosh avlodni ezgu umuminsoniy g’oyalar ruhida tarbiyalashni yozuvchi romanda asosiy badiiy maqsadga aylantirgan. Asarning bosh qahramoni Imom Moturidiyning islom dini uchun olib borgan say’-harakatlari, oila va somoniylar hukmronligi davrida tutgan avliyosifat go’zal fazilatlarini zamondoshlarimizga etik va estetik ideal sifatida taqdim etiladi. Zero, dunyo turkologiya ilmida “Dunyoni moturidiya qutqaradi” degan aksioma gapkeng tarqalgan. Yangi O’zbekistonda “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy -tadqiqot markazi”ning tashkil etilishi ham bu ulug’ shaxsga hurmat va ehtirom ramzi sifatida e’tirof etiladi.

Luqmon Bo’rixon allomaning hayoti va ijodiga doir tarixiy materiallarni o’rganib, o’zbek nasrida ilk bor Imom Moturidiy obrazini mahorat bilan yaratdi. “Bir asrlik tarixga ega o’zbek romanchiligida ishqiy, avantur, ilmiy-fantastik, ijtimoiy-siyosiy, memuar, esse, tarixiy, maishiy, ishlab chiqarish va boshqa yo’nalishdagi asarlar yaratilgandi. Luqmon Bo’rixonning «Imom Moturidiy» romani milliy adabiyotimizdagi ilk falsafiy-aqidaviy roman bo’lib, unda insonning e’tiqodi, dunyoqarashi, kayfiyati va o’y-xayollarini tasvirlashga ustuvor ahamiyat berildi. Odam o’ylar-u tuyg’ular og’ushidagina chinakam odamligini namoyon etishi hisobga olindi.

”Uning asl yoshini bilish qiyin: ellikning etagidan tutgan bo’lsa-da, ozg’in, chayir jussasi, yakkam-dukkam oq oralagan siyraktob soch-soqoli, tetik, ildam xatti-

harakatlari yigitlarga xos, quyuq qoshlar ostidan o`ychan, sinchkov boquvchi ko`zlar, qirra burun, bo`rtiq yanoqlar chehrasiga xushsuratlik, xushfe`llik baxsh etib turadi. Cho`pon qorni to`yib bir-biriga suykalayotgan qo`y-qo`zilarini yalanglikdan haydab chiqarishga chog`landi. Ammo shu payt otlarini yo`rttirganicha qaytib kelayotgan haligi sipohilarga ko`zi tushdi...”[3.20.]

Yuqorida bayon qilingan tasvirdan ham ko`rinib turibdiki, Moturidiy garchi yoshi ulug` bo`lsa-da, yigitlarga xos husn-malohatga ega. Ammo uning avliyo degan sharafiga loyiq ko`rilishining boisi faqatgina husni-malohat bo`lmay, balki aql-idrok, o`tkir zehn, uzoqni ko`ra bilish qobiliyati hamda vaziyatni to`g`ri baholay olish kabi kuchli siyosatdonlarga xos sifatlaridir. Buni asardagi juda ko`p o`rinlarda kuzatishimiz mumkin. Moturidiyning mo`taziliylar bilan bahsida, shogirdlari bilan suhbatida, hokimdan kelgan choparlar bilan suhbatida juda yaqqol seziladi. Moturidiy judayam gapga chechan va rostgo`y shaxs bo`lgan: “Bir tutam jussa nogoh qulog`iga chalingan pishqiriqdan sergaklanib ortiga o`girildi. Ko`rdiki, qing`ir-qiyshiq,tuproqlari ko`pchigan yo`l bo`ylab uch sipohi bedovlarini o`ynoqlatib, tevarakka nopisand ko`z tashlab kelardi. Kahrabo qadalgan simbotus sallasi, chirozlari zarhal yaktagi, serbezak kamari amaldorlar qavmiga xosligini uqtirib turgan zot ot jilovini torta-torta dag`al bir tovushda so`radi.

– Ey, cho`pon, imom Abu Mansurning uyi qaerda? Bilsang, ko`rsat bizga.

Cho`pon quyuq daraxtzor ortidagi past-baland xonadonlar tomon ishora qildi.

– Shu yo`ldan to`g`ri yurgaysiz. So`l tarafda, qari qo`shtut qabatidagi uy. Tomi past, eshigi kichik.

Yelkalariga o`q-yoy, bellariga qilich osgan ikki navkar tulporlari boshini o`sha yoqqa burdi. Ammo amaldor nusxa otliq yo`l ko`rsatuvchiga hanuz savolchan tikilib turar, ko`zlari g`azabnok yiltillar edi.

– Biz Qal`ai qasr mulozimlarimiz, nahotki, payqamading?

– Ha, payqadim, – bosh irg`adi cho`pon, – pishqiriqlardan payqadim.

– Pishqiriqlardan?!

– Ha, xo`b boqilgan jonivorlar Qal`ai qasrda bo`lgay, alar o`zgacha pishqirgay.....” [3.18.]

Moturidiy hazratlari gapga ustalik bilan navkarlar ustidan kulmoqda. Ammo bu kinoya gapni navkarlay anglay olmadilar. “ot singari hovliqib, pishqiradiganlar saroyda yashaydi. Ularning hammasi shunday deb piching qilmoqda”. Afsuski, buni ular anglamadilar.

Romanda Moturidiy obrazi bosh qahramon vazifasini bajarish bilan birga asarning kompozitsiyasini birlashtirib, fabulani bog`lab turadi. Boshqa obrazlar va qahramonlar, sujet va voqealar tizimi Moturidiyga ipsiz bog`lanadi. Buning boisi Moturidiyga bo`lgan xasadgo`ylik, desak mubolag`a bo`lmaydi.

Asardagi obrazlarda adibning hissiy munosabati ham o'z aksini topgan. Hissiy munosabat badiiy konsepsiyani shakllantirishda, asar mazmunini o'quvchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Imom Moturidiy" romanida yozuvchi Moturidiy obraziga alohida mehr, iliqlik, samimiylik bilan yondashadi. Ayni paytda, ijodkor qahramonining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy zarbalardan iztirobga tushayotganidan qayg'uradi:"... – Ey, rahmli va mehribon Parvardigor! Hikmatingning, himmatingning chek-chegarasi yo`q. Abu Mansur qulingning qadrini nomidan ham, tomidan ham baland qilding. Ul g`aribingga ato etilgan ne`matlar shukronasini qilmoqqa imkon ber. Nogoh jonini olma!" [3.19.]

Luqmon Bo'rixon obraz yaratishda tajribakor yozuvchi. U ushbu davrga oid ko'p adabiy, badiiy, tarixiy, ilmiy manbalardan yaxshi xabardor. Ularni hijjalab o'rganganligi va ko'p fikrlar yuritgani yozgan so'zlarida sezilib turadi. Uning badiiy fantaziyasi voqelikka yolg'on tirkamaydi, voqelikni tagi yo'q yolg'on oldi-qochdilar bilan to'ldirmaydi, ko'pirtirmaydi, voqelikni bezab-bejab ko'rsatmaydi. Yaratgan har bir qahramonlarida u xoh tarixiy shaxs bo'lsin, xoh to'qima obraz bo'lsin haqqoniylik tamoyiliga amal qiladi. Tarixiy shaxslarning har bir gapirgan so'zlarida, bajargan ishlarida o'sha davrdagi tarixiy shart-sharoit vaziyat nuqtai nazaridan kelib chiqib shunday yo'l tutganliklari kitobxonga sezilib turadi.

Ushbu roman o'zbek badiiy tafakkurining bugungi darajasi nechog'lik yuksalganidan dalolat beradi" [2.4]. Xususan, Luqmon Bo'rixon mazkur romanni yaratishda Abu Bakr Muhammad Narshahiyning "Tarixiy Buxoro", Abu Tohirxo'ja Samarqandiyning "Samariya", Alisher Navoiyning "Nasoyimul-muhabbat" tarixiy manbalariga suyanadi. Ayniqsa, adib somoniylar hukmronligining IX-X asrlarga doir tarixiy faktlarni chuqur o'rgangan. Qolaversa, islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni karim" va "Hadis"larni ham teran o'rganib, buyuk mutafakkir ajdodimiz, moturidiylik ta'limoti asoschisi imom Abu Mansur Moturidning badiiy qiyofasini aks ettirishga muvaffaq bo'lgan.

Yozuvchi ushbu romanga yozgan so'ng so'zida shunday yozadi: "Men ham bir qalamkash sifatida buyuk mutafakkir bobomizning siymosi, hayot yo'li, aqida sofliqi, mustahkamligi uchun olib borgan qat'iy kurashi aks etgan asar qoralashga urinib ko'rdim"[3.286].

"Yozuvchining tushunishiga muvofiq, tarixiy shaxslarning o'z davrida tutgan ijtimoiy mavqeyi, jamiyat hayotidagi roli, tarixiy haqiqatga mos ravishda, buzmasdan saqlanadi, haqqoniy tasvir etiladi."[5.102.]. Luqmon Bo'rixon ham mana shu tamoyilga amal qiladi, yaratgan har bir obrazida tarixiy faktlarga suyanadi. U har qanday holda meyorlar, tasvir, fantaziya, hayot va badiiyat mezonlarini saqlaydi va nafis fikrlay turib jiddiylik, aniqlikdan chekinmaydi. Qahramonning ahvolini adiba juda yaxshi tushunib anglab turadi va shu teran tushunchasi darajasida munosabatda bo'ladi, tarixda Moturidiy haqiqatini ochishga intiladi.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, romanda Moturidiy tarixiy shaxs sifatida tarixiy haqiqatlar negizida badiiy talqin qilingan, shunga ko’ra Moturidiy obrazini muvaffaqiyatli badiiy talqinlardan biri bo’lgan, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O’zbekiston” gazetasi. Toshkent: 2022-yil 19-iyul soni.
2. Q.Yo’ldosh. “Imom Moturidiy” – ilk falsafiy-aqidaviy roman. <https://ishonch.uz/archives/8679>.
3. Bo’rixon L. Imom Moturidiy. – T.: “Adabiyot” nashriyoti, 2022. – B. 286.
4. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyyeva. Adabiyotshunoslik lug’ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010 44-bet
5. Izzat Sul-ton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2005. 102-bet